



ONLINE EDUCATIONAL PLATFORMS, THEIR ADVANTAGES AND DISADVANTAGES

Mavjud Bolibekova,
O’zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.f.d
E-mail: mavjudamardievna1970

Abstract This work is aimed at an in-depth study of the advantages, disadvantages and prospects of online educational platforms. The research was conducted based on the methodology of literature analysis, previously published theoretical works, empirical studies and statistical data were analyzed and the positive aspects of digital education such as interactivity, economic efficiency and flexibility were identified. Based on the results of the research, promising proposals were put forward to improve the technological infrastructure, diversify pedagogical methods, adapt teachers to digital education, and integrate online education with traditional education. This work is aimed at elucidating current problems in the field of online education and creating a scientific basis for conducting deeper research in this direction in the future.

Key words: online education, digital education, literature review, interactive learning methods, pedagogical innovations.

ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПЛАТФОРМЫ, ИХ ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ

Аннотация Данная работа направлена на углубленное изучение преимуществ, недостатков и перспектив онлайн-образовательных платформ. Исследование проведено на основе методологии анализа литературы, проанализированы ранее опубликованные теоретические работы, эмпирические исследования и статистические данные и выявлены положительные стороны цифрового образования, такие как интерактивность, экономическая эффективность и гибкость. По результатам исследования выдвинуты перспективные предложения по совершенствованию технологической инфраструктуры, диверсификации педагогических методов, адаптации учителей к цифровому образованию, интеграции онлайн-образования с традиционным образованием. Данная работа направлена на освещение актуальных проблем в сфере онлайн-образования и создание научной основы для проведения более глубоких исследований в этом направлении в будущем.

Ключевые слова: онлайн-образование, цифровое образование, обзор литературы, интерактивные методы обучения, педагогические инновации.

ONLAYN TA’LIM PLATFORMALARI, ULARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Annotatsiya Ushbu ish onlayn ta’lim platformalarining afzalliklari, kamchiliklari va istiqbollari masalasini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasi asosida olib borilgan bo‘lib, ilgari chop etilgan nazariy asarlar, empirik tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, raqamli ta’limning interaktivligi, iqtisodiy samaradorligi va moslashuvchanligi kabi ijobiy jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida texnologik infratuzilmani yaxshilash, pedagogik usullarni diversifikatsiya qilish, o‘qituvchilarni raqamli ta’limga moslashtirish va an’anaviy ta’lim bilan onlayn ta’limni integratsiya qilish bo‘yicha istiqbolli takliflar ilgari surilgan. Ushbu ish onlayn ta’lim sohasidagi dolzarb muammolarni yoritish va kelgusida ushbu yo‘nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy asos yaratishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: onlayn ta’lim, raqamli ta’lim, adabiyotlar tahlili, interaktiv o‘quv metodlari, pedagogik innovatsiyalar,

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Onlayn ta’lim platformalari bugungi kunda dunyo bo‘ylab millionlab insonlar uchun bilim olishning eng qulay va samarali usullaridan biriga aylandi. Pandemiya davrida, jismoniy masofani saqlash talablari tufayli, onlayn ta’limning ahamiyati yanada oshdi. Bu platformalar nafaqat maktab va universitetlar uchun, balki kasbiy malakani oshirish, yangi ko‘nikmalar o‘zlashtirish va hatto shaxsiy rivojlanish uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi. Biroq, onlayn ta’limning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ularni chuqurroq tahlil qilish orqali bu sohani yanada takomillashtirish mumkin.

Onlayn ta’lim platformalari, masalan, Coursera, Udemy, Khan Academy, Zoom va boshqalar, o‘quvchilarga istalgan vaqtida va istalgan joyda bilim olish imkoniyatini beradi. Bu xususiyat, ayniqsa, band odamlar, ishlayotgan talabalar yoki qishloq joylarda yashovchilar uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, onlayn kurslar odatda arzonroq yoki hatto bepul bo‘lib, ta’limga kirishni osonlashtiradi. Shuningdek, platformalarning interfaol interfeysi, video darslar, testlar va muhokamalar orqali o‘quv jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi.

Biroq, onlayn ta’limning o‘ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, har bir o‘quvchi uchun internetga kirish va texnik qurilmalar mavjud emas. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda katta muammo hisoblanadi. Ikkinchidan, onlayn ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita aloqa yo‘qligi sababli, ba’zi o‘quvchilar motivatsiyani yo‘qotishi yoki murakkab mavzularni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, onlayn kurslarni muvaffaqiyatli yakunlash uchun o‘quvchining yuqori darajada intizomli va o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Onlayn ta’lim platformalari so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotlar va ilmiy ishlar mavzusi bo‘lib kelgan. Olimlar va mutaxassislar bu sohani turli jihatlari bilan o‘rganib, uning afzalliliklari, kamchiliklari va kelajakdagagi istiqbollarini chuqur tahlil qilishgan. Masalan, Bates o‘zining “Teaching in a Digital Age” kitobida ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ularning o‘qitish metodikasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini yoritgan. Uning fikricha, onlayn ta’lim an’anaviy ta’limni to‘liq almashtira olmaydi, lekin uni qo‘shimcha resurs sifatida samarali foydalanish mumkin. Bates shuningdek, onlayn ta’limning eng katta afzalligi sifatida uning moslashuvchanligi va global miqyosda bilim almashish imkoniyatini ta’kidlaydi.

Means et al. tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’lim an’anaviy ta’limga qaraganda kamida bir xil darajada samarali bo‘lishi mumkin. Ular “Learning Online: What Research Tells Us About Whether, When and How” kitobida onlayn kurslarning o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda qanday rol o‘ynashini tahlil qilishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, onlayn ta’limda interfaol metodlardan foydalanish (masalan, video darslar, testlar va muhokamalar) o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Biroq, ular shuni ham ta’kidlaydiki, onlayn ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatiga bog‘liq.

Dhawan o‘z maqolasida pandemiya davrida onlayn ta’limning ahamiyatini ta’kidlab, bu jarayonda duch kelinadigan qiyinchiliklarni ham ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, internetga kirish imkoniyatining cheklanganligi va texnik qurilmalarning yetishmasligi onlayn ta’limni barcha uchun qulay qilishdagi asosiy to’siq hisoblanadi.

Selwyn o‘zining “Is Technology Good for Education?” kitobida ta’limda texnologiyalarning roli haqida tanqidiy nuqtai nazarni ilgari surgan. Uning fikricha, texnologiyalar ta’limni yaxshilash uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning noto‘g‘ri qo‘llanilishi ta’lim tizimidagi tengsizliklarni kuchaytirishi mumkin. Selwyn shuni ta’kidlaydiki, onlayn ta’lim platformalari faqatgina texnik jihatdan jihozlangan va yuqori darajada o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun samarali bo‘lishi mumkin. Bu esa, ayniqsa, imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilar uchun katta to’siq bo‘lib qoladi.

Zawacki-Richter et al. tomonidan o‘tkazilgan keng qamrovli tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan kurslarning dizayni va o‘qituvchilarning raqamli pedagogik ko‘nikmalariga bog‘liq. Ular “Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education” maqolasida onlayn ta’limda sun’iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning potentsialini o‘rganishgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AI asosidagi platformalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o‘qitishni ta’minlash imkoniyatiga ega. Biroq, bu texnologiyalarni joriy qilish uchun katta moliyaviy va texnik resurslar talab etiladi.

Picciano o‘zining “Theories and Frameworks for Online Education” kitobida onlayn ta’limning nazariy asoslarini yoritgan. Uning fikricha, onlayn ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun faqatgina texnologiyalarga emas, balki pedagogik nazariyalarga ham asoslanish kerak.

Picciano shuni ta’kidlaydiki, onlayn ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ta’minalash uchun konstruktivizm va kollaborativ ta’lim kabi nazariyalardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola onlayn ta’lim platformalarining afzalliklari, kamchiliklari va istiqbollarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu sohadagi ilgari chop etilgan ilmiy asarlar va tadqiqotlarni tahlil qilish orqali umumiy xulosalar chiqarishga intilgan. Bu yerda asosiy yondashuv sifatida adabiyotlar tahlili metodologiyasi qo‘llanilgan.

Tadqiqotda onlayn ta’lim mavzusiga oid kitoblar, maqolalar va ilmiy hisobotlar (masalan, Bates, Means et al., Dhawan, Selwyn, Zawacki-Richter va Picciano asarlari) asosiy manba sifatida ishlatilgan. Tanlangan adabiyotlar ilmiy jihatdan ishonchli bo‘lishi, mavzuning dolzarbliji va onlayn ta’limning turli jihatlarini yoritishi asosida aniqlangan. Tadqiqotda mavjud adabiyotlar orasidan umumiy mavzular, tendensiyalar va farqlar aniqlanib, ularning o‘zaro taqqoslanishi amalga oshirilgan.

Har bir manbaning nazariy yondashuvi (masalan, raqamli ta’lim konsepsiylari, pedagogik nazariyalar, konstruktivizm, kollaborativ ta’lim) va ularning amaliy natijalari chuqur o‘rganilgan.

Turli manbalarda ta’kidlangan onlayn ta’limning afzalliklari va kamchiliklari solishtirilib, umumiy xulosalar chiqarishga harakat qilingan. Misol uchun, Batesning “Teaching in a Digital Age” kitobi bilan Means et al. tomonidan o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar o‘rtasidagi tafovutlar va o‘xhashliklar aniqlanib, integratsiyalashgan natijalar ishlab chiqilgan.

Tahlil natijalari asosida, onlayn ta’limning moslashuvchanligi, arzonligi va keng qamrovli bilim almashish imkoniyatlari bilan birga, internetga kirish cheklovleri, texnologik imkoniyatlari va o‘zini-o‘zi boshqarishdagi qiyinchiliklar kabi kamchiliklari ham aniqlandi.

Tahlil qilingan adabiyotlar yordamida, onlayn ta’lim platformalarining hozirgi ahvoli va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari to‘g‘risida keng qamrovli xulosalar chiqarildi. Shu bilan birga, tadqiqotda mavjud bo‘lgan bo‘shliq va kelajakda chuqurroq o‘rganilishi zarur bo‘lgan jihatlar belgilandi. Tadqiqotda turli ilmiy asarlar va tadqiqot natijalari bir-biri bilan solishtirilib, ularning ishonchliligi tekshirilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadi, onlayn ta’lim platformalari o‘quvchilarga o‘z vaqtlarida dars olish imkoniyatini berib, ularning shaxsiy jadvaliga moslashadi. Bu xususiyat ayniqsa band odamlar, ishlayotgan talabalar va uzoq hududlarda istiqomat qiluvchilar uchun katta afzallik sifatida qayd etilgan.

Tadqiqotda, video darslar, testlar va onlayn muhokamalar orqali bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlari ta’kidlandi. Adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, platformalarda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab onlayn kurslar arzon yoki bepul taqdim etilishi, ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi. Bu xususiyat, ayniqsa, resurslari cheklangan o‘quvchilar uchun katta imkoniyat deb baholandi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili asosida aniqlangan muammolardan biri – internetga kirish va zamonaviy texnik qurilmalarga ega bo‘lishdagi cheklovlar. Ayniqsa,

rivojlanayotgan hududlarda bu holat onlayn ta’limning keng ommaga yetib borishida to‘sinqilik qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’limdan samarali foydalanish uchun o‘quvchilarining yuqori darajada o‘zini boshqarish va intizomga ega bo‘lishlari zarur. Bunday qobiliyatlarning yetishmasligi ko‘plab o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatga erishishda qiyinchilik tug‘dirishi aniqlangan. Onlayn ta’lim platformalarida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita muloqotning cheklanganligi, o‘quvchilarining chuqur tushunishini va motivatsiyasini pasaytirishi mumkinligi qayd etildi. Adabiyotlarda keltirilgan nazariy yondashuvlar (masalan, konstruktivizm, kollaborativ ta’lim) va empirik tadqiqotlar asosida, onlayn ta’limning samaradorligini oshirish uchun interaktiv va talabaga yo‘naltirilgan metodlarni joriy etish zarurligi aniqlandi.

Ushbu yondashuvlar yordamida, onlayn ta’lim platformalarining afzallikkari hamda mavjud kamchiliklari o‘zaro taqqoslanib, ularning samaradorligini oshirish uchun kelgusida qaysi sohalarda ishlash zarurligi aniqlanib chiqdi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, texnologik imkoniyatlar kengayishi va raqamli ta’lim metodlarining rivojlanishi yordamida onlayn ta’lim platformalari yanada takomillashtirilishi mumkin. Bu jarayonda:

Sun’iy intellekt, virtual reallik va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga shaxsiylashtirilgan o‘qitish uslublari joriy etilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Nazariy yondashuvlar bilan amaliy metodlarni birlashtirish orqali, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va texnik infrastrukturani yaxshilash orqali, ta’limdagi tengsizliklarni kamaytirish istiqbollari mavjudligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’lim platformalarining keng imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, uning to‘liq samaradorligini ta’minlash uchun texnologik, pedagogik va ijtimoiy cheklowlarni bartaraf etish zarur. Adabiyotlar tahlili natijalari kelgusida onlayn ta’lim sohasida chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish va platformalarni yanada takomillashtirish uchun strategik yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bates A. W. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning.* 2015. – 430 p.
2. Dhawan S. *Online Learning: A Panacea in the Time of COVID-19 Crisis.* 2020. – 88 p.
3. Garrison D. R., Anderson T., Archer, W. *Critical Inquiry in a Text-Based Environment: Computer Conferencing in Higher Education. The Internet and Higher Education,* 2(2-3), 2007. - 87–105 pp.
4. Johnson L., Adams Becker, S., Estrada, V., Freeman, A. *The NMC Horizon Report: 2014 Higher Education Edition.* Austin, TX: The New Media Consortium. 2014. – 435-445 pp.

5. Means B., Bakia M., Murphy R. Learning Online: What Research Tells Us About Whether, When and How. 2009. – 109 p.
6. Moore M. G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. Cengage Learning. 2011. – 50 p.
7. Picciano A. G. Theories and Frameworks for Online Education. 2018. – 22-34pp.
8. Selwyn N. Is Technology Good for Education?. 2016 – 150 p.
9. Zawacki-Richter O., Marín V. I., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education. 2019. – 220 p.